

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAMROYEVA MAFTUNA RASULOVNA

**O‘ZBEK TILINING AMALIY
GRAMMATIKASI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma
sifatida nashrga tavsiya etgan*

Buxoro-2024

“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti

UO`K 811.512.133(075.8)

KBK 81.2O`zb-2 ya73

H 20

M.Hamroyeva,

**“O‘zbek tilining amaliy grammatikasi” [matn] / o‘quv qo‘llanma, Buxoro:
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti, 2024 yil 124 b.**

“O‘zbek tilining amaliy grammatikasi” – ta‘lim muassasasida o‘zbek tilini o‘qitish tilning jamiyatda tutgan o‘rni, bajaradigan vazifasini talabalar ongiga singdirishdan boshlanadi. Fikr faqat til yordamida shakllanadi, ammo nutq orqali namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham har bir kishi undan, albatta, to‘g‘ri hamda o‘rinli foydalanishga harakat qilishi zarur. Tilni o‘rganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta‘rif va qoidalarni o‘zlashtirib olish emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, aniq hamda ravon ifodalash malakalarini egallashdan iboratdir. “O‘zbek tili amaliy grammatikasi” fani talaba yoshlarga o‘zbek tilining grammatik qonuniyatlarini o‘rgatish bilan birga, tilning serqirra imkoniyatlaridan nutqda foydalanish me‘yorlarini ham o‘rgatadi.

Shu ma‘noda ushbu o‘quv qo‘llanma talabalarga o‘zbek tilining amaliy grammatikasini o‘rgatishga doir tilshunoslik masalalarining qonun-qoidalari, rivojlanish, shakllanish qonuniyatlari o‘rni va ta‘siri masalalari o‘z aksini topgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta‘lim yo‘nalishi bakalavriyat bosqichi talabalariga mo‘ljallangan. Undan soha mutaxassislari, ilmiy izlanuvchilar, magistrlar ilmiy-nazariy manba sifatida foydalanishlari ham mumkin.

Taqrizchilar:

*N.B.Adizova - Buxoro davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*A.R.Axmedov - Buxoro davlat universiteti Filologiya
fakulteti O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*

**O‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar
vazirligining 2023 yil 22 dekabrda 537-sonli buyrug‘iga asosan nashr qilishga
tavsiya etilgan. Ro‘yxatga olish raqami № 537313**

2317



ISBN 978-9910-797-13-2

KIRISH

Mamlakatimizda ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ayniqsa, o‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi maqomini yanada mustahkamlash, uning nufuzi va mavqeyini ko‘tarish, jamiyat hayotining barcha sohalarida faol qo‘llanishini ta‘minlash bo‘yicha qabul qilingan qator qonun hamda qarorlar ona tilimizni chuqur va ilmiy o‘rganishni yangi bosqichga ko‘tarish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Tilimiz rivojiga oid muhim tarixiy hujjatda belgilangan “O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, unib-o‘tib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash”¹ maqsadi o‘zbek tilshunoslari oldiga hal qilinishi lozim bo‘lgan bir qator vazifalarni qo‘ydi. Xalq ma‘naviyati yuksalishiga hamda tilimizning abadiy va mustahkam bo‘lishi garovi bo‘lgan yosh avlodga ona tilimizning mazmun-mohiyatini tushunish va undan to‘g‘ri hamda o‘rinli foydalanishni o‘rgatish davr taqozosiga aylanmoqda.

“O‘zbek tilining amaliy grammatikasi” jamiyatning o‘zaro aloqa almashinuvida amaliy ehtiyojlar ta‘sirida yuzaga kelgan tilshunoslikdagi mustaqil bir sohadir. Amaliy tilshunoslik jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib kelmoqda. Dastlab uning shug‘ullanish sohasi yozuv, imlo, talaffuz masalalarini qamrab oladi. Bu masalalar esa yozuvning paydo bo‘lishi bilan yuzaga kelgan muammolar kabi an‘anaviy muammolar guruhini tashkil etadi. Ammo til taraqqiy qilar ekan, tilning zamonaviy imkoniyatlari ham kengayib, o‘zgarish kasb etib boraveradi.

Shunday ekan, mazkur fanda o‘rganiladigan masalalar zamonaviy jihatdan juda dolzarb bo‘lib, uning o‘qitilishi talabalarning bilim saviyasi va iqtidorini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bugungi davrda, ya‘ni jamiyatimizni demokratlashtirish jarayonida mana shu jarayonga xizmat qiladigan va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda hozirgi o‘zbek adabiy tili yuzasidan ko‘pchilika manzur keladigan, o‘rinli, qisqa, aniq, tushunarli, adabiy til qonuniyatlariga muvofiq ilmiy tadqiqotlarni yaratishda ushbu fanning o‘qitish ko‘lami, ilmiy nazariy hamda amaliy ahamiyati beqiyos kattadir. Mazkur muammolarni ilmiy nazariy jihatlardan tizimli ravishda “O‘zbek tilining amaliy grammatikasi” nomli fan tadqiq etadi.

Shu nuqtayi nazardan mazkur fanni oliy o‘quv yurtlarining filologiya, o‘zbek tili va adabiyoti talabalariga fan sifatida o‘qitish o‘ta muhim sanaladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6084-сон Фармони. Манба: <http://lex.uz/docs/505835>; uza.uz/uz/posts/mamlakat.

1-mavzu Fonetika. Fonetik birliklarning til tizimidagi ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: *fonetika, tovush, nutq tovushi, fonologiya, ziddiyat, unli, lablanmaganlik, lablanganlik, tor, keng, yuqori, o'rta, quyi, undosh, korrelyativ, jarangli, jarangsiz, farqlovchi, variantlashuv, fizik (akustik) va fiziologik (artikulyatsion), nutqiy variant, kombinator-pozitsion, singarmonizm, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, proteza, epenteza, epiteza, prokopa, sinkopa, apakopa, sinerezis, reduksiya, eliziya, grafema, morfem variant, morfonema, agglyutinatsiya, talaffuz, sheva*


Unli fonemalar paradigmasi. Tilning ko'tarilish darajasi (yuqori, o'rta, quyi) va lablanish-lablanmaslik – kuchli pozitsiyadagi unli fonemalarning asosiy sistema hosil qiluvchi belgisi. Unlilarning til gorizontol holatiga ko'ra (old qator, o'rta qator va orqa qator) belgilari asosiy hisoblanmaydi. Chunki bu belgilar nutqiy yondosh tovush, ya'ni chuqur til orqa undoshlari ta'sirida o'zgarib turadi. Masalan, *q* undoshi bilan sintagmatik munosabatida *a* unlisi til orqalik xossasiga ega bo'lsa, *d* undoshi qurshovida o'z holatini saqlaydi: *Vatan* leksemasida old qator bo'lgan *a* fonemasi *qalb* leksemasida orqa qator fonema sifatida namoyon bo'ladi.

Unli fonemalarning asosiy belgilariga ko'ra tasnifini ikki xil jadval asosida quyidagicha ifodalash mumkin (1-2-jadval):

1-jadval

Og'izning ochilish darajasi (tilning ko'tarilish darajasi)ga ko'ra			Lablarning ishtirokiga ko'ra	
Tor (yuqori tor) unlilar	O'rta tor yoki o'rta keng unlilar	keng unlilar (quyi ko'tarilish)	lablangan	Lablanmagan
i, u	e, o'	a, o	o, o', u	a, e, i

2-jadval



QAYDLAR UCHUN

HAMROYEVA MAFTUNA RASULOVNA

**O‘ZBEK TILINING AMALIY
GRAMMATIKASI**

Muharrir: F.Usmonov
Texnik muharrir: O.Jabborov
Musahhih: M.Kuziyeva
Sahifalovchi: X.Axrorov

Nashriyot litsenziyasi №040075. 23.09.2022. Original maketidan bosishga ruxsat etildi: 28.12.2023. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 7,75. Adadi 100. Buyurtma № 93

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti. Buxoro shahri
Hofiz Tanish Buxoriy ko‘chasi, 190-B uy. Tel: (97) 736-20-11
Bahosi kelishilgan narxda.



“BUKHARA HAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko‘chasi, 344-uy